**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**LATIPOV HAKIMBOY MIRZO O‘G‘LI**

# TO‘RTINCHI TARTIBLI OPERATORLI MATRITSALAR SINFI UCHUN SPEKTRAL BAHOLASHLAR

**01.01.01 – Matematik analiz**

**fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**UDK: 517.984**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Content of the abstract of doctor of philosophy (PhD) dissertation**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**LATIPOV HAKIMBOY MIRZO O‘G‘LI**

# TO‘RTINCHI TARTIBLI OPERATORLI MATRITSALAR SINFI UCHUN SPEKTRAL BAHOLASHLAR

**01.01.01 – Matematik analiz**

**fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/FM862 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va “Ziyonet” axborot ta’lim tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Rasulov To‘lqin Husenovich**<br>fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Mo‘minov Muxiddin Eshqobilovich**<br>fizika-matematika fanlari doktori (DSc), dotsent |
| | **Kucharov Ramziddin Ruzimuradovich**<br>fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent |
| **Yetakchi tashkilot:** | **Urganch davlat universiteti** |

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “__ __” ____________ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 231 06 32; faks: (+998 66) 235 19 38, e-mail: patent@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 231 06 32;

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “____” ____________ kuni tarqatildi.
(2024 yil “____” ____________ dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi).

**A.A. Soleyev**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

**A.M. Xolxo‘jayev**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., professor

**S.N. Laqayev**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., professor, akademik

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda olib borilayotgan ko‘plab izlanishlar, aksariyat hollarda elementlari Banax yoki Hilbert fazolarida ta’sir qiluvchi chiziqli operatorlardan iborat bo‘lgan blok operatorli matritsalarning spektral xossalarini o‘rganishga olib kelinadi. Blok operatorli matritsalar va ularning muhim sinflaridan biri bo‘lgan panjaradagi soni saqlanmaydigan chegaralangan sondagi zarrachalar sistemasiga mos Hamiltonianlarning muhim va diskret spektrlari bilan bog‘liq masalalar qattiq jismlar fizikasi, kvant maydon nazariyasi, statistik fizika, magnitogidrodinamika, kvant mexanikasi va boshqa ko‘plab sohalardagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shuning uchun blok operatorli matritsalar, xususan, panjaradagi soni saqlanmaydigan va to‘rttadan oshmaydigan zarrachalar sistemasiga mos operatorli matritsaga oid tadqiqotlarni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Dunyoda operatorli matritsalar spektrining joylashuv o‘rnini aniqlash, ularning muhim spektri va xos qiymatlari sonini o‘rganishga doir ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, to‘rtinchi tartibli operatorli matritsa uchun to‘rtinchi darajali sonli tasvirning tuzulishini tahlil qilish, hamda uni to‘rtinchi tartibli operatorli matritsa spektrining joylashuv o‘rnini aniqlashga tadbiq qilish, panjaradagi soni saqlanmaydigan va to‘rttadan oshmaydigan zarrachalar sistemasiga mos operatorli matritsa muhim spektrining tuzilishini tadqiq qilish, uning xos qiymatlar sonini tahlil qilishga alohida e’tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqlariga ega bo‘lgan dolzarb yo‘nalishlariga e’tibor kuchaytirildi, xususan, mamlakatimiz olimlari tomonidan to‘rtinchi tartibli operatorli matritsalarning spektrlarini tahlil qilish, ayniqsa panjaradagi soni saqlanmaydigan va to‘rttadan oshmaydigan zarrachalar sistemalariga mos Hamiltonianlarning xossalarini tadqiq qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Operatorli matritsalarning muhim spektrini aniqlash va xos qiymatlarining maksimal sonini topishga oid salmoqli natijalarga erishildi. “Matematika, fizika, amaliy matematika fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish asosiy vazifalar va faoliyat yo‘nalishlari” etib belgilandi[1]. Bu borada operatorli matritsalarning spektral nazariyasini rivojlantirish, to‘rtinchi tartibli operatorli matritsalarning spektrlarining joylashuv o‘rnini aniqlash hamda ularning muhim spektri tuzilishini ko‘rsatish, uning xos qiymatlari soni chekli yoki cheksiz bo‘ladigan shartlarni topish, shu bilan birga muhim spektrdan tashqarida yotuvchi xos qiymatlarining maksimal sonini aniqlash muhim ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek,

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 292-sonli qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Fok fazosining qirqilgan qism fazosidagi operatorli matritsalar spektral nazariyasiga oid tadqiqotlar H.Shpon, I.M.Sigal, A.Soffer, V.Bach, R.A.Minlos, Yu.V.Jukov, H.Neidhardt, S.N.Laqayev, T.H.Rasulov, M.E.Mo‘minov va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan olib borilgan.
Hozirgi vaqtda operatorli matritsalar xos qiymatlari sonini tadqiq qilish masalasi operatorli matritsalar spektral nazariyasining chuqur o‘rganilayotgan obyektlaridan biri hisoblanadi. Uchinchi tartibli operatorli matritsalar spektral tahlilidagi asosiy masalalardan biri uning muhim spektridan chapda joylashgan cheksiz sondagi xos qiymatlar mavjudligini o‘rganish masalasidir. Bu hodisaning mavjudligi dastlab uchta zarrachalar sistemasi uchun V.N.Yefimov tomonidan o‘rganilgan hamda keyinchalik Yefimov hodisasi deb atalgan. Ushbu hodisa mavjudligining qat’iy matematik isboti dastlab D.R.Yafayev tomonidan keltirilgan. Keyinchalik Yu.N.Ovchinnikov, I.M.Sigal, H.Tamura, A.V.Sobolev va boshqa olimlar tomonidan uch zarrachali uzluksiz Shryodinger operatori uchun Yefimov hodisasining mavjudligi o‘rganilgan.

Qattiq jismlar fizikasi, shuningdek, panjaraviy maydon nazariyasida $\mathbb{R}^d$ Yevklid fazosidagi uch zarrachali Shryodinger operatorining panjaraviy analogi bo‘lgan diskret Shryodinger operatori deb ataluvchi operatorlar paydo bo‘ladi. Dastlab S.N.Laqayev tomonidan uch o‘lchamli panjaradagi o‘zaro juft-jufti bilan kontakt ta’sirlashuvchi uchta ixtiyoriy va uchta bir xil zarrachali sistemalar uchun Yefimov hodisasining mavjudligi matematik nuqtai nazardan qat’iy isbotlangan. S.N.Laqayev, S.Albeverio, J.I.Abdullaev va Z.E.Mo‘minovlarning ishlarida $H(K)$ uch zarrachali diskret Shryodinger operatorining $z$ dan chapda yotuvchi xos qiymatlari soni $N(K,z)$ uchun $K$ va $z$ spektral parametrlar bo‘yicha asimptotikalar olingan. M.E.Mo‘minovning ishida panjaradagi uchta ixtiyoriy zarrachalar sistemasiga mos Hamiltonian muhim spektrining bo‘shlig‘ida cheksiz sondagi xos qiymatlar mavjudligi isbotlangan.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ishlarda soni saqlanadigan chekli sondagi zarrachalar sistemalari uchun Yefimov hodisasining mavjudligi o‘rganilgan. S.N.Laqayev, S.Albeverio, T.H.Rasulovlarning ishlarida esa uchinchi tartibli operatorli matritsa uchun Yefimov hodisasining mavjud bo‘lishi isbotlangan, hamda xos qiymatlar soni uchun asimptotik formula o‘rganilgan. H.Neidhardt, M.E.Mo‘minov va T.H.Rasulovlarning ishida uchinchi tartibli operatorli matritsalar uchun olingan natijalar yordamida panjaradagi ko‘pi bilan ikkita fotonli spin-bozon modelining spektri batafsil o‘rganilgan. M.E.Mo‘minov va T.H.Rasulovlarning ishlarida esa bu turdagi operatorli matritsalar uchun muhim spektrning ichida (muhim spektrning bo‘shlig‘ida, muhim spektrdan chapda) cheksiz sondagi xos qiymatlar mavjud bo‘lish shartlari topilgan. T.H.Rasulov va E.B.Dilmurodovlarning ishlarida esa panjaradagi soni saqlanmaydigan va uchtadan oshmaydigan zarrachalar sistemasi bilan bog‘liq ikkinchi tartibli operatorli matritsa uchun ikki yoqlama Yefimov hodisasining mavjudligi isbotlangan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi**. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2017-2026 yillarga mo‘ljallangan M.01.2017-raqamli “Chiziqli operatorlarning spektral nazariyasi” ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** to‘rtinchi darajali sonli tasvir uchun alternativ formula topish, panjaradagi soni saqlanmaydigan va to‘rttadan oshmaydigan zarrachalar sistemasiga mos to‘rtinchi tartibli operatorli matritsa muhim spektrining tuzilishini aniqlash va uning xos qiymatlari sonini tadqiq qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari**:

maxsus ko‘rinishdagi to‘rtinchi tartibli operatorli matritsaning to‘rtinchi darajali sonli tasviri uchun formula topish;

uch diagonalli to‘rtinchi tartibli operatorli matritsalar uchun Gershgorin teoremasining analogini olish;

diskret parametrli to‘rtinchi tartibli operatorli matritsa muhim hamda diskret spektrlarini tadqiq qilish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida panjaradagi soni saqlanmaydigan va to‘rttadan oshmaydigan zarrachalar sistemasiga mos to‘rtinchi tartibli operatorli matritsa olingan.

**Tadqiqotning predmetini** Fok fazosining qirqilgan qism fazosidagi o‘z-o‘ziga qo‘shma chegaralangan to‘rtinchi tartibli operatorli matritsaning spektral xossalari tashkil etgan.

**Tadqiqotning usullari**. Dissertatsiya ishida matematik analiz, funksional analiz, o‘z-o‘ziga qo‘shma operatorlar spektral nazariyasi va zamonaviy matematik fizikaning “spektral baholash” va “spektrni aniqlash” usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat**:

- to‘rtinchi darajali sonli tasvir uchun alternativ formula ishlab chiqarilgan hamda uning yordamida to‘rtinchi tartibli operatorli matritsalar sinfi spektrining quyi va yuqori chegaralari uchun klassik qo‘zg‘alishlar nazariyasi baholashlaridan farqli baholashlar olingan;

- uch diagonalli to‘rtinchi tartibli operatorli matritsalar sinfi uchun klassik Gershgorin teoremasining analogi isbotlangan hamda bu teorema yordamida matritsalar sinfining chegaralari uchun klassik qo‘zg‘alishlar nazariyasi va to‘rtinchi darajali sonli tasvir yordamida olingan baholashlardan farqli baholashlar topilgan;

- to‘rtinchi tartibli operatorli matritsa muhim spektrining ikki, uch, to‘rt zarrachali tarmoqlari joylashuv o‘rni aniqlangan, uni tashkil etuvchi kesmalar soni topilgan hamda blok elementlari orasida spektral munosabatlar o‘rnatilgan;

- uchinchi tartibli operatorli matritsa ko‘pi bilan sakkizta, to‘rtinchi tartibli operatorli matritsa koʻpi bilan oʻn oltita xos qiymatga ega boʻlishi Fredgolm determinantining xossalaridan foydalanib isbotlangan hamda bu xos qiymatlar koʻpi bilan ikki karrali boʻlishi koʻrsatilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat**:

panjaradagi soni saqlanmaydigan va toʻrttadan oshmaydigan zarrachalar sistemasiga mos toʻrtinchi tartibli operatorli matritsaning spektral xossalari haqidagi xulosalar atom fizikasida, kvant mexanikasida eksperimental tadqiqotlarning sifat koʻrsatkichini aniqlash hamda sonli hisoblashlarda foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** matematik analiz, funksional analiz, zamonaviy matematik fizika va oʻz-oʻziga qoʻshma operatorlarning spektral nazariyasi metodlaridan foydalangan holda aniq matematik tahlillar va isbotlashlar bilan izohlangan.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati**. Tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy ahamiyati ulardan oʻz-oʻziga qoʻshma operatorlar nazariyasining kvant maydonlar nazariyasi, qattiq jismlar fizikasi, statistik fizikada paydo boʻladigan, xususan, toʻrtinchi tartibli operatorli matritsalar bilan bogʻliq masalalarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati** shundan iboratki, operatorli matritsalarning xos qiymatlari soni yordamida qattiq jismlar fizikasi va kvant mexanikasining panjaradagi soni saqlanmaydigan va toʻrttadan oshmaydigan zarrachalar sistemalariga mos modellarning xos qiymatlari sonini aniqlash mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.** Toʻrtinchi tartibli operatorli matritsalarga doir olingan ilmiy natijalar asosida:

diskret parametrli toʻrtinchi tartibli operatorli matritsa koʻpi bilan 16 ta xos qiymatga ega boʻlishi; toʻrtinchi tartibli operatorli matritsalarning quyi va yuqori chegaralari uchun olingan baholashlardan Xoʻja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universitetining № AP05131268 raqamli “Xususiy hosilali nolokal differensial tenglamalar uchun chegaraviy va boshlangʻinch-chegaraviy masalalarni yechish muammolari” mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (Xoʻja Ahmad Yassaviy nomidagi Xalqaro qozoq-turk universitetining 2023-yil 24-noyabrdagi 04-3840-son ma’lumotnomasi). Toʻrtinchi tartibli operatorli matritsaning xos qiymatlari hamda toʻrtinchi darajali sonli tasvir xossalari nolokal Laplas operatori uchun ba’zi chegaraviy masalalarning xos funksiyalari va xos qiymatlarini qurish usullarini tadqiq qilish imkonini bergan.

Diskret parametrga ega toʻrtinchi tartibli operatorli matritsa muhim spektrining ikki, uch va toʻrt zarrachali tarmoqlarini aniqlashda, muhim spektr kesmalarining soni hamda blok elementlari orasidagi spektral munosabatlarini tekshirishda qoʻllanilgan metodlardan Malayziya Xalqaro islom universitetining FRGS19-039-0647 raqamli fundamental loyihasida foydalanilgan (Malayziya Xalqaro islom universitetining 2023-yil 23-oktabrdagi ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qoʻllanilishi oddiy differensial tenglamaga asoslangan usullar yordamida qiymatlar quyi chegarasiga sonli yaqinlashishni oʻrganish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi**. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta Respublika miqyosidagi jami 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi**. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, jumladan, 2 tasi xorijiy va 4 tasi Respublika jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi**. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 94 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiyada tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi yoritilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy va mahalliy ilmiy-tadqiqot ishlari farqi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan maqolalar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Dastlabki ma’lumotlar**” deb ataladi. Ushbu bobda dissertatsiya ishining asosiy natijalarini bayon qilishda va isbotlashda foydalanilgan muhim tushunchalar, tasdiqlar va teoremalar keltirilgan. Shuningdek, tadqiqot ishiga, Fok fazosining qirqilgan qism fazosida ta’sir qiluvchi operatorli matritsalarning tahliliga oid bir qator olimlarning ilmiy natijalari, hozirgacha o‘rganilgan dissertatsiya ishlari hamda ba’zi maqolalarning tahlili berilgan.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“To‘rtinchi darajali sonli tasvir”** deb nomlanadi. Chiziqli operatorlarning spektral nazaryasidan yaxshi ma’lumki, $\mathcal{H}_1, \mathcal{H}_2, \mathcal{H}_3, \mathcal{H}_4$ to‘rtta Hilbert fazolari to‘g‘ri yig‘indisida, ya’ni $\mathcal{H} := \mathcal{H}_1 \oplus \mathcal{H}_2 \oplus \mathcal{H}_3 \oplus \mathcal{H}_4$ fazoda ta’sir qiluvchi har qanday $\mathcal{A}$ chiziqli chegaralangan operator hamisha to‘rtinchi tartibli operatorli matritsa ko‘rinishida tasvirlanadi

$$\mathcal{A} = \begin{pmatrix} A_{11} & A_{12} & A_{13} & A_{14} \\ A_{21} & A_{22} & A_{23} & A_{24} \\ A_{31} & A_{32} & A_{33} & A_{34} \\ A_{41} & A_{42} & A_{43} & A_{44} \end{pmatrix}, \tag{1}$$

bu yerda $A_{ij}: \mathcal{H}_j \to \mathcal{H}_i$, $i, j = 1,2,3,4$ matritsaviy elementlar chiziqli chegaralangan operatorlardir. Ta’rifga ko‘ra, $\mathcal{A}$ operatorli matritsa o‘z-o‘ziga qo‘shma bo‘lishi uchun $A_{ij}^* = A_{ji}$ $i, j = 1,2,3,4$ bo‘lishi zarur va yetarlidir, ya’ni

$$\mathcal{A}^* = \mathcal{A} \Leftrightarrow A_{ij}^* = A_{ji},\ i, j = 1,2,3,4.$$

$S_{\mathcal{H}_i}$, $i = \overline{1,4}$ orqali $\mathcal{H}_i$ Hilbert fazosidagi birlik sferani belgilaymiz:

$$S_{\mathcal{H}_i} := \{x \in \mathcal{H}_i : \| x \| = 1\},$$

va quyidagi to‘plamni kiritamiz:

$$S_{\mathcal{H}_1 \oplus \mathcal{H}_2 \oplus \mathcal{H}_3 \oplus \mathcal{H}_4} \coloneqq S_{\mathcal{H}_1} \times S_{\mathcal{H}_2} \times S_{\mathcal{H}_3} \times S_{\mathcal{H}_4},$$

ya’ni

$$S_{\mathcal{H}_1 \oplus \mathcal{H}_2 \oplus \mathcal{H}_3 \oplus \mathcal{H}_4} := \{(x_1, x_2, x_3, x_4) \in \mathcal{H}: x_i \in \mathcal{H}_i, \| x_i \| = 1, i = 1,2,3,4\}.$$

Agar $\mathcal{H}$ fazoning $\mathcal{H} = \mathcal{H}_1 \oplus \mathcal{H}_2 \oplus \mathcal{H}_3 \oplus \mathcal{H}_4$ yoyilmasi fiksirlangan bo‘lsa, u holda $S_{\mathcal{H}_1 \oplus \mathcal{H}_2 \oplus \mathcal{H}_3 \oplus \mathcal{H}_4}$ belgilash o‘rniga $S^4$ yoki $S_{\mathcal{H}}$ belgilashdan ham foydalanish mumkin.

Har bir fiksirlangan $x = (x_1, x_2, x_3, x_4) \in S_{\mathcal{H}_1 \oplus \mathcal{H}_2 \oplus \mathcal{H}_3 \oplus \mathcal{H}_4}$ element uchun

$$\mathcal{A}_x := \begin{pmatrix} (A_{11}x_1, x_1) & (A_{12}x_2, x_1) & (A_{13}x_3, x_1) & (A_{14}x_4, x_1) \\ (A_{21}x_1, x_2) & (A_{22}x_2, x_2) & (A_{23}x_3, x_2) & (A_{24}x_4, x_2) \\ (A_{31}x_1, x_3) & (A_{32}x_2, x_3) & (A_{33}x_3, x_3) & (A_{34}x_4x_3) \\ (A_{41}x_1, x_4) & (A_{42}x_2, x_4) & (A_{43}x_3, x_4) & (A_{44}x_4, x_4) \end{pmatrix}$$

to‘rtinchi tartibli sonli matritsani qaraymiz. U holda ushbu

$$W_{\mathcal{H}_1 \oplus \mathcal{H}_2 \oplus \mathcal{H}_3 \oplus \mathcal{H}_4}(\mathcal{A}) := \bigcup_{x \in S^4} \sigma_{\mathrm{p}}(\mathcal{A}_x),$$

to‘plamga $\mathcal{A}$ operatorli matritsaning (1) ko‘rinishiga mos to‘rtinchi darajali sonli tasviri deyiladi.

$\mathcal{H}$ fazoning fiksirlangan yoyilmasiga nisbatan

$$W^4(\mathcal{A}) = W_{\mathcal{H}_1 \oplus \mathcal{H}_2 \oplus \mathcal{H}_3 \oplus \mathcal{H}_4}(\mathcal{A})$$

kabi belgilashdan ham foydalanish mumkin.

$I$ orqali tegishli fazodagi birlik operatorni belgilaymiz. Chiziqli algebra kursidan yaxshi ma’lumki, har bir $x \in S^4$ element uchun

$$\sigma_{\mathrm{p}}(\mathcal{A}_x) = \{\lambda \in \mathbb{C}: \ \det(\mathcal{A}_x - \lambda I) = 0\}$$

tenglik o‘rinlidir.

Shu sababli $W^4(\mathcal{A})$ to‘plamni

$$W^4(\mathcal{A}) = \{\lambda \in \mathbb{C}: \exists x \in S^4, \det(\mathcal{A}_x - \lambda I) = 0\}$$

tenglik yordamida aniqlash mumkin.

Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, to‘rtinchi tartibli $\mathcal{A}$ operatorli matritsaning to‘rtinchi darajali sonli tasvirini tadqiq qilishda to‘rtinchi tartibli sonli matritsaning nuqtali spektrini, ya’ni uning xos qiymatlari to‘plamini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Keyingi natijalarni bayon qilish maqsadida quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

1) $W(A)$ – $A$ chiziqli operatorning sonli tasviri;

2) $W^2(A)$ – ikkinchi tartibli $A$ operatorli matritsaning kvadratik sonli tasviri;

3) $W^3(A)$ – uchinchi tartibli $A$ operatorli matritsaning kubik sonli tasviri.

(1) tenglik bilan aniqlangan $\mathcal{A}$ blok operatorli matritsa uchun quyidagi shartlar bajarilishini talab qilamiz:

1) $|i - j| > 1$ bo‘lganda $A_{ij} = 0$;

2) barcha $i < j$ lar uchun $A_{ji} = A_{ij}^*, \ i, j = \overline{1,4}$.

U holda $\mathcal{A}$ operatorli matritsa quyidagicha

$$\mathcal{A} = \begin{pmatrix} A_{11} & A_{12} & 0 & 0 \\ A_{12}^* & A_{22} & A_{23} & 0 \\ 0 & A_{23}^* & A_{33} & A_{34} \\ 0 & 0 & A_{34}^* & A_{44} \end{pmatrix} \tag{2}$$

uch diagonalli chegaralangan o‘z-o‘ziga qo‘shma operatorli matritsa ko‘rinishida tasvirlanadi. Uning $W^4(\mathcal{A})$ to‘rtinchi darajali sonli tasviri uchun alternativ formula keltirib chiqarish masalasini qaraymiz.

Dastlab $\mathcal{A}^* = \mathcal{A}$ bo‘lgani bois $W(\mathcal{A}) \subset \mathbb{R}$ bo‘lishini eslatib o‘tamiz. Shu bilan birgalikda $\mathcal{A}$ operatorli matritsaning chegaralangan ekanligidan uning sonli tasviri joylashgan sohani yanada aniqroq ko‘rsatuvchi $W(\mathcal{A}) \subset [-\| \mathcal{A} \|; \| \mathcal{A} \|]$ munosabatni hosil qilamiz. To‘rtinchi darajali sonli tasvirning asosiy xossalaridan biri bu uning sonli tasvirda joylashgan ekanligidir: $W^4(\mathcal{A}) \subset W(\mathcal{A})$. Operatorli matritsalar uchun isbotlangan “spektral munosabatlar” xossasidan foydalanib, $\mathcal{A}$ operatorli matritsaning nuqtali spektri uchun $\sigma_{\mathrm{p}}(\mathcal{A}) \subset W^4(\mathcal{A})$ munosabatni va uning spektri uchun $\sigma(\mathcal{A}) \subset \overline{W^4(\mathcal{A})}$ munosabatni hosil qilamiz. Shunday qilib,

$$\sigma_{\mathrm{p}}(\mathcal{A}) \subset W^4(\mathcal{A}) \subset W(\mathcal{A}) \subset [-\| \mathcal{A} \|; \| \mathcal{A} \|];$$

$$\sigma(\mathcal{A}) \subset \overline{W^4(\mathcal{A})} \subset \overline{W(\mathcal{A})} \subset [-\| \mathcal{A} \|; \| \mathcal{A} \|].$$

Ayrim muhim xususiy hollarda $\mathcal{A}$ blok operatorli matritsaning $W^4(\mathcal{A})$ to‘rtinchi darajali sonli tasvirini o‘rganamiz.

**1-tasdiq.** *Agar* (2) *tenglik yordamida aniqlangan $\mathcal{A}$ blok operatorli matritsada $A_{23} = 0$ bo‘lsa, u holda $W^4(\mathcal{A}) = W^2(\mathcal{A}_1) \cup W^2(\mathcal{A}_2)$ tenglik o‘rinli, bunda*

$$\mathcal{A}_1: \mathcal{H}_1 \oplus \mathcal{H}_2 \to \mathcal{H}_1 \oplus \mathcal{H}_2, \quad \mathcal{A}_2: \mathcal{H}_3 \oplus \mathcal{H}_4 \to \mathcal{H}_3 \oplus \mathcal{H}_4$$

*operatorli matritsalar*

$$\mathcal{A}_1 := \begin{pmatrix} A_{11} & A_{12} \\ A_{12}^* & A_{22} \end{pmatrix}, \quad \mathcal{A}_2 := \begin{pmatrix} A_{33} & A_{34} \\ A_{34}^* & A_{44} \end{pmatrix}$$

*kabi aniqlangan*.

**2-tasdiq.** *Agar* (2) *tenglik yordamida aniqlangan $\mathcal{A}$ operatorli matritsada $A_{12} = 0$ bo‘lsa, u holda $W^4(\mathcal{A}) = W(A_{11}) \cup W^3(\mathcal{A}_3)$ tenglik o‘rinli bo‘ladi, bunda*

$$\mathcal{A}_3: \mathcal{H}_2 \oplus \mathcal{H}_3 \oplus \mathcal{H}_4 \to \mathcal{H}_2 \oplus \mathcal{H}_3 \oplus \mathcal{H}_4$$

*operatorli matritsa*

$$\mathcal{A}_3 := \begin{pmatrix} A_{22} & A_{23} & 0 \\ A_{23}^* & A_{33} & A_{34} \\ 0 & A_{34}^* & A_{44} \end{pmatrix}$$

*kabi aniqlangan*.

**3-tasdiq.** *Agar* (2) *tenglik yordamida aniqlangan $\mathcal{A}$ operatorli matritsada $A_{34} = 0$ bo‘lsa, u holda $W^4(\mathcal{A}) = W^3(\mathcal{A}_4) \cup W(A_{44})$ tenglik o‘rinli, bunda*

$$\mathcal{A}_4: \mathcal{H}_1 \oplus \mathcal{H}_2 \oplus \mathcal{H}_3 \to \mathcal{H}_1 \oplus \mathcal{H}_2 \oplus \mathcal{H}_3$$

*operatorli matritsa*

$$\mathcal{A}_4 := \begin{pmatrix} A_{11} & A_{12} & 0 \\ A_{12}^* & A_{22} & A_{23} \\ 0 & A_{23}^* & A_{33} \end{pmatrix}$$

*kabi aniqlangan.*

Quyidagicha belgilashlarni kiritamiz:

$$P(f) := |(A_{12}f_2, f_1)|^2 + |(A_{23}f_3, f_2)|^2 + |(A_{34}f_4, f_3)|^2;$$

$$Q(f) := |(A_{12}f_2, f_1)|^2 \cdot |(A_{34}f_4, f_3)|^2.$$

$$E_1(f):=-\frac{\sqrt{2}}{2}\sqrt{P(f)+\sqrt{(P(f))^2-4Q(f)}};$$
$$E_2(f):=-\frac{\sqrt{2}}{2}\sqrt{P(f)-\sqrt{(P(f))^2-4Q(f)}};$$
$$E_3(f):=\frac{\sqrt{2}}{2}\sqrt{P(f)-\sqrt{(P(f))^2-4Q(f)}};$$
$$E_4(f):=\frac{\sqrt{2}}{2}\sqrt{P(f)+\sqrt{(P(f))^2-4Q(f)}}.$$

**1-teorema.** a) *Faraz qilaylik,* (2) *tenglik yordamida aniqlangan* $\mathcal{A}$ *operatorli matritsada* $A_{ii}=0,\ i=1,2,3,4$ *bo'lsin. U holda* $\mathcal{A}$ *operatorli matritsaning to'rtinchi darajali sonli tasviri* $W^4(\mathcal{A})$ *uchun*

$$W^4(\mathcal{A})=\bigcup_{f\in S^4}\bigcup_{k=1}^{4}\{E_k(f)\}$$

*formula o'rinlidir.*

b) $\mathcal{A}$ *blok operatorli matritsaning quyi va yuqori chegaralari uchun quyidagi*

$$\min\sigma(\mathcal{A})\geq\inf W^4(\mathcal{A})=\inf\bigcup_{f\in S^4}\{E_1(f)\};$$
$$\max\sigma(\mathcal{A})\leq\sup W^4(\mathcal{A})=\sup\bigcup_{f\in S^4}\{E_4(f)\}$$

*baholashlar o'rinli.*

$\mathcal{H}$ Hilbert fazosida ta'sir qiluvchi (3) ko'rinishdagi operatorli matritsaning elementlari uchun $A_{ij}\in L(\mathcal{H}_j,\mathcal{H}_i)$, $|i-j|\leq 1$ va $A_{ii}^*=A_{ii}, i,j=\overline{1,4}$ bo'lsin.

Quyidagi $\mathcal{G}_i$, $i=\overline{1,4}$ to'plamlarni kiritamiz:

$$\mathcal{G}_1:=\sigma(A_{11})\cup\{\lambda\in\rho(A_{11}):\|(A_{11}-\lambda)^{-1}\|^{-1}\leq\|A_{12}\|\};$$
$$\mathcal{G}_2:=\sigma(A_{22})\cup\{\lambda\in\rho(A_{22}):\|(A_{22}-\lambda)^{-1}\|^{-1}\leq\|A_{12}\|+\|A_{23}\|\};$$
$$\mathcal{G}_3:=\sigma(A_{33})\cup\{\lambda\in\rho(A_{33}):\|(A_{33}-\lambda)^{-1}\|^{-1}\leq\|A_{34}\|+\|A_{23}\|\};$$
$$\mathcal{G}_4:=\sigma(A_{44})\cup\{\lambda\in\rho(A_{44}):\|(A_{44}-\lambda)^{-1}\|^{-1}\leq\|A_{34}\|\}.$$

**2-teorema.** (2) *tenglik yordamida aniqlangan* $\mathcal{A}$ *operatorli matritsaning spektri uchun*

$$\sigma(\mathcal{A})\subset\bigcup_{i=1}^{4}\mathcal{G}_i$$

*munosabat o'rinli. Bundan tashqari, uning chegaralari uchun*

$$\min\sigma(\mathcal{A})\geq-\|A_{23}\|-\max\{\|A_{12}\|,\|A_{34}\|\};$$
$$\max\sigma(\mathcal{A})\leq\|A_{23}\|+\max\{\|A_{12}\|,\|A_{34}\|\}$$

*baholashlar o'rinlidir.*

1-teorema va 2-teoremalarning afzallik tomonlarini ko'rsatish maqsadida $a\geq 0$ soni uchun

$$M:=\begin{pmatrix} 0 & -1 & 0 & 0\\ -1 & 0 & a & 0\\ 0 & a & 0 & 1\\ 0 & 0 & 1 & 0\end{pmatrix}$$
to‘rtinchi tartibli matritsani qaraymiz. Sodda hisoblashlar orqali
$$W^4(M)=\sigma_{\mathrm{p}}(M)=\{E_1,E_2,E_3,E_4\}$$
ekanligini hosil qilamiz, bu yerda
$$E_1:=-\frac{\sqrt{2}}{2}\sqrt{a^2+2+\sqrt{a^4+4a^2}},\qquad E_2:=-\frac{\sqrt{2}}{2}\sqrt{a^2+2-\sqrt{a^4+4a^2}};$$
$$E_3:=\frac{\sqrt{2}}{2}\sqrt{a^2+2-\sqrt{a^4+4a^2}},\qquad E_4:=\frac{\sqrt{2}}{2}\sqrt{a^2+2+\sqrt{a^4+4a^2}}.$$
Aniqlanishiga, shu bilan birga 1-teoremaga ko‘ra
$$\min\sigma(M)=\min W^4(M)=E_1, \max\sigma(M)=\max W^4(M)=E_4.$$
2-teorema yordamida
$$\min\sigma(M)\geq -1-a;\ \max\sigma(M)\leq 1+a$$
quyi va yuqori chegaralarni topish mumkin.

1-teorema va 2-teoremalar yordamida hosil qilingan har ikkala chegaralar ustma-ust tushadigan $a$ parametrning yagona qiymati $a=0$ dir. Barcha $a>0$ uchun to‘rtinchi darajali sonli tasvir yordamida topilgan chegara 2-teorema (Gershgorin teoremasi analogi) yordamida topilgan chegaradan yaxshiroqdir.

1-teoremaga ko‘ra $\mathcal{A}$ operatorning quyi va yuqori chegaralari uchun
$$\min\sigma(\mathcal{A})\geq -\sqrt{\| A_{12}\|^2+\| A_{23}\|^2+\| A_{34}\|^2};$$
$$\max\sigma(\mathcal{A})\leq \sqrt{\| A_{12}\|^2+\| A_{23}\|^2+\| A_{34}\|^2}$$
baholashlar o‘rinli degan xulosaga kelamiz.

Dissertatsiyaning “**To‘rtinchi tartibli operatorli matritsaning muhim va diskret spektrlari**” deb nomlangan uchinchi bobida panjaradagi soni saqlanmaydigan va to‘rttadan oshmaydigan zarrachalar sistemasi Hamiltonianiga mos to‘rtinchi tartibli $\mathcal{A}$ operatorli matritsa qaraladi. Bu Hamiltonian $\mathbb{R}^{\mathrm{d}}$ Yevklid fazosidagi, ya’ni $L_2(\mathbb{R}^{\mathrm{d}},\mathbb{C}^2)$ Hilbert fazosi yordamida qurilgan bozonli Fok fazosidagi soni uchtadan ko‘p bo‘lmagan fotonli spin-bozon modeli bilan bog‘liq.

$\mathrm{d}\in\mathbb{N}$ natural son va $\mathbb{T}^{\mathrm{d}}:=(-\pi;\pi]^{\mathrm{d}}$ esa d o‘lchamli tor bo‘lsin.

$m=1,2,3$ uchun $L_2((\mathbb{T}^{\mathrm{d}})^m)$ orqali $(\mathbb{T}^{\mathrm{d}})^m$ to‘plamda aniqlangan kvadrati bilan integrallanuvchi (umuman olganda kompleks qiymatli) funksiyalarning Hilbert fazosini belgilaymiz hamda quyidagi Hilbert fazolarni kiritamiz:
$$\mathcal{F}(L_2(\mathbb{T}^{\mathrm{d}})):=\mathbb{C}\oplus L_2(\mathbb{T}^{\mathrm{d}})\oplus L_2((\mathbb{T}^{\mathrm{d}})^2)\oplus\ldots;$$
$$\mathcal{F}^{(1)}(L_2(\mathbb{T}^{\mathrm{d}})):=\mathbb{C}\oplus L_2(\mathbb{T}^{\mathrm{d}});$$
$$\mathcal{F}^{(2)}(L_2(\mathbb{T}^{\mathrm{d}})):=\mathbb{C}\oplus L_2(\mathbb{T}^{\mathrm{d}})\oplus L_2((\mathbb{T}^{\mathrm{d}})^2);$$
$$\mathcal{F}^{(3)}(L_2(\mathbb{T}^{\mathrm{d}})):=\mathbb{C}\oplus L_2(\mathbb{T}^{\mathrm{d}})\oplus L_2((\mathbb{T}^{\mathrm{d}})^2)\oplus L_2((\mathbb{T}^{\mathrm{d}})^3);$$
$$\mathcal{H}^{(m)}:=\mathbb{C}^2\otimes\mathcal{F}^{(m)}(L_2(\mathbb{T}^{\mathrm{d}})),\quad m=1,2,3.$$
$\mathcal{F}(L_2(\mathbb{T}^{\mathrm{d}}))$ Hilbert fazosiga $L_2(\mathbb{T}^{\mathrm{d}})$ fazo yordamida qurilgan Fok fazosi deyiladi, $\mathcal{F}^{(m)}(L_2(\mathbb{T}^{\mathrm{d}}))$ Hilbert fazosiga esa Fok fazosining $m+1$ zarrachali qirqilgan qism fazosi deyiladi.

Ta’rifga ko‘ra $\mathcal{H}^{(3)}$ Hilbert fazosining ixtiyoriy $F$ elementi $F=$

$\{f_0^{(s)}, f_1^{(s)}, f_2^{(s)}, f_3^{(s)}, s=\pm\} \in \mathcal{H}^{(3)}$ ko‘rinishda bo‘lib uning normasi

$$\| F \|^2 = \sum_{s=\pm} \Bigg( |f_0^{(s)}|^2 + \int_{\mathbb{T}^d} |f_1^{(s)}(k_1)|^2 dk_1 + \int_{(\mathbb{T}^d)^2} |f_2^{(s)}(k_1,k_2)|^2 dk_1 dk_2 + \int_{(\mathbb{T}^d)^3} |f_3^{(s)}(k_1,k_2,k_3)|^2 dk_1 dk_2 dk_3 \Bigg)$$

formula orqali aniqlanadi.

$\mathcal{H}^{(3)}$ Hilbert fazosida quyidagi

$$\mathcal{A} := \begin{pmatrix} A_{00} & A_{01} & 0 & 0 \\ A_{01}^* & A_{11} & A_{12} & 0 \\ 0 & A_{12}^* & A_{22} & A_{23} \\ 0 & 0 & A_{23}^* & A_{33} \end{pmatrix}$$

uch diagonalli operatorli matritsani qaraymiz, bunda matritsaviy elementlar

$$A_{00} f_0^{(s)} = s\varepsilon f_0^{(s)}, \quad A_{01} f_1^{(s)} = \alpha \int_{\mathbb{T}^d} v(t) f_1^{(-s)}(t) dt,$$

$$(A_{11} f_1^{(s)})(k_1) = (s\varepsilon + w(k_1)) f_1^{(s)}(k_1), (A_{12} f_2^{(s)})(k_1) = \alpha \int_{\mathbb{T}^d} v(t) f_2^{(-s)}(k_1,t) dt,$$

$$(A_{22} f_2^{(s)})(k_1,k_2) = (s\varepsilon + w(k_1) + w(k_2)) f_2^{(s)}(k_1,k_2),$$

$$(A_{23} f_3^{(s)})(k_1,k_2) = \alpha \int_{\mathbb{T}^d} v(t) f_3^{(-s)}(k_1,k_2,t) dt,$$

$$(A_{33} f_3^{(s)})(k_1,k_2,k_3) = (s\varepsilon + w(k_1) + w(k_2) + w(k_3)) f_3^{(s)}(k_1,k_2,k_3)$$

kabi aniqlangan. Bu yerda $\{f_0^{(s)}, f_1^{(s)}, f_2^{(s)}, f_3^{(s)}, s=\pm\} \in \mathcal{H}^{(3)}$; $i<j$ bo‘lganda $A_{ij}^*$ orqali $A_{ij}$ operatorga qo‘shma operator belgilangan, $v(\cdot)$, $w(\cdot)$ funksiyalar $\mathbb{T}^d$ torda aniqlangan haqiqiy qiymatli va uzluksiz funksiyalar hamda

$$\min_{k\in\mathbb{T}^d} w(k) = 0,$$

$\alpha > 0$ esa ta’sirlashish parametri. $\mathcal{A}$ operatorli matritsa $\mathcal{H}^{(3)}$ Hilbert fazosidagi chiziqli chegaralangan va o‘z-o‘ziga qo‘shma bo‘ladi.

Quyida biz $\mathcal{A}$ operatorli matritsaning spektrini o‘rganish masalasini o‘rin almashtirish operatoridan foydalanib, nisbatan soddaroq ko‘rinishga ega bo‘lgan $\mathcal{A}^{(s)}$, $s=\pm$ operatorli matritsaning spektrini o‘rganish masalasiga keltiramiz. So‘ngra, $\mathcal{A}$ operatorli matritsaning spektri diskret parametrli $\mathcal{A}^{(s)}$, $s=\pm$ operatorli matritsalarning spektrlari orqali tavsiflanadi.

$m=1,2$ sonlari uchun $\mathcal{H}^{(m)}$ Hilbert fazosida ta’sir qiluvchi $(m+1)$-tartibli operatorli matritsalarni qaraymiz:

$$\mathcal{A}_1 := \begin{pmatrix} A_{00} & A_{01} \\ A_{01}^* & A_{11} \end{pmatrix}, \mathcal{A}_2 := \begin{pmatrix} A_{00} & A_{01} & 0 \\ A_{01}^* & A_{11} & A_{12} \\ 0 & A_{12}^* & A_{22} \end{pmatrix}.$$

Ta’kidlash joizki, $\mathcal{A}_m$, $m=1,2$ operatorli matritsa $\mathcal{H}^{(m)}$ Hilbert fazosida chiziqli, chegaralangan va o‘z-o‘ziga qo‘shma operator bo‘ladi.

Keyingi izlanishlarda qulaylik tug‘dirish maqsadida $\mathcal{F}^{(m)}(L_2(\mathbb{T}^d))$ Hilbert fazosida ta’sir qiluvchi quyidagi chegaralangan va o‘z-o‘ziga qo‘shma bo‘lgan hamda $\mathcal{A}_m^{(\mathrm{s})}$, $m=1,2,3$, $\mathrm{s}=\pm$ orqali belgilangan $(m+1)$-tartibli diskret parametrli operatorli matritsalarni qaraymiz:

$$\mathcal{A}_1^{(\mathrm{s})}:=\begin{pmatrix}\widehat{\mathrm{A}}_{00}^{(\mathrm{s})} & \widehat{\mathrm{A}}_{01}\\ \widehat{\mathrm{A}}_{01}^{*} & \widehat{\mathrm{A}}_{11}^{(\mathrm{s})}\end{pmatrix},\qquad \mathcal{A}_2^{(\mathrm{s})}:=\begin{pmatrix}\widehat{\mathrm{A}}_{00}^{(\mathrm{s})} & \widehat{\mathrm{A}}_{01} & 0\\ \widehat{\mathrm{A}}_{01}^{*} & \widehat{\mathrm{A}}_{11}^{(\mathrm{s})} & \widehat{\mathrm{A}}_{12}\\ 0 & \widehat{\mathrm{A}}_{12}^{*} & \widehat{\mathrm{A}}_{22}^{(\mathrm{s})}\end{pmatrix},$$

$$\mathcal{A}_3^{(\mathrm{s})}:=\begin{pmatrix}\widehat{\mathrm{A}}_{00}^{(\mathrm{s})} & \widehat{\mathrm{A}}_{01} & 0 & 0\\ \widehat{\mathrm{A}}_{01}^{*} & \widehat{\mathrm{A}}_{11}^{(\mathrm{s})} & \widehat{\mathrm{A}}_{12} & 0\\ 0 & \widehat{\mathrm{A}}_{12}^{*} & \widehat{\mathrm{A}}_{22}^{(\mathrm{s})} & \widehat{\mathrm{A}}_{23}\\ 0 & 0 & \widehat{\mathrm{A}}_{23}^{*} & \widehat{\mathrm{A}}_{33}^{(\mathrm{s})}\end{pmatrix}.$$

Bunda matritsaviy elementlar

$$\widehat{\mathrm{A}}_{00}^{(\mathrm{s})}f_0=\mathrm{s}\varepsilon f_0,\quad \widehat{\mathrm{A}}_{01}f_1=\alpha\int_{\mathbb{T}^{\mathrm{d}}}v(t)f_1(t)dt,$$

$$(\widehat{\mathrm{A}}_{11}^{(\mathrm{s})}f_1)(k_1)=(-\mathrm{s}\varepsilon+w(k_1))f_1(k_1),\quad (\widehat{\mathrm{A}}_{12}f_2)(k_1)=\alpha\int_{\mathbb{T}^{\mathrm{d}}}v(t)f_2(k_1,t)dt,$$

$$(\widehat{\mathrm{A}}_{22}^{(\mathrm{s})}f_2)(k_1,k_2)=(\mathrm{s}\varepsilon+w(k_1)+w(k_2))f_2(k_1,k_2),$$

$$(\widehat{\mathrm{A}}_{23}f_3)(k_1,k_2)=\alpha\int_{\mathbb{T}^{\mathrm{d}}}v(t)f_3(k_1,k_2,t)dt,$$

$$(\widehat{\mathrm{A}}_{33}^{(\mathrm{s})}f_3)(k_1,k_2,k_3)=(-\mathrm{s}\varepsilon+w(k_1)+w(k_2)+w(k_3))f_3(k_1,k_2,k_3),$$

$$(f_0,f_1)\in\mathcal{F}^{(1)}\left(L_2\left(\mathbb{T}^{\mathrm{d}}\right)\right),\quad (f_0,f_1,f_2)\in\mathcal{F}^{(2)}\left(L_2\left(\mathbb{T}^{\mathrm{d}}\right)\right),$$

$$(f_0,f_1,f_2,f_3)\in\mathcal{F}^{(3)}(L_2(\mathbb{T}^{\mathrm{d}}))$$

ko‘rinishda aniqlangan.

Keyingi natijalarni bayon qilishda yozuvni qisqartirish maqsadida $\mathcal{A}_3:=\mathcal{A}$ deb faraz qilinadi.

$m=1,2,3$ sonlari uchun $\mathcal{A}_m$ va $\mathcal{A}_m^{(\mathrm{s})}$, $\mathrm{s}=\pm$ operatorli matritsalarning spektrlari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlovchi teoremani bayon qilamiz.

**3-teorema.** *Faraz qilaylik, $m=1,2,3$ bo‘lsin. $\mathcal{A}_m$ va $\mathcal{A}_m^{(\mathrm{s})}$, $\mathrm{s}=\pm$ operatorli matritsalarning spektrlari uchun $\sigma(\mathcal{A}_m)=\sigma(\mathcal{A}_m^{(+)})\cup\sigma(\mathcal{A}_m^{(-)})$ tenglik o‘rinli. Bundan tashqari, ularning muhim va nuqtali spektrlari uchun*

$$\sigma_{\mathrm{ess}}(\mathcal{A}_m)=\sigma_{\mathrm{ess}}(\mathcal{A}_m^{(+)})\cup\sigma_{\mathrm{ess}}(\mathcal{A}_m^{(-)}),$$

$$\sigma_{\mathrm{p}}(\mathcal{A}_m)=\sigma_{\mathrm{p}}(\mathcal{A}_m^{(+)})\cup\sigma_{\mathrm{p}}(\mathcal{A}_m^{(-)})$$

*tengliklar o‘rinlidir.*

**1-eslatma.** *$m=1,2,3$ bo‘lganda $\mathcal{A}_m^{(\mathrm{s})}$ operatorli matritsa $\sigma_{\mathrm{disc}}(\mathcal{A}_m^{(\mathrm{s})})$ diskret spektrining bir qismi $\mathcal{A}_m^{(-\mathrm{s})}$ operatorli matritsa $\sigma_{\mathrm{ess}}(\mathcal{A}_m^{(-\mathrm{s})})$ muhim spektrida yotishi mumkin bo‘lgani bois quyidagi munosabatlar o‘rinli:*

$$\sigma_{\mathrm{disc}}(\mathcal{A}_m)\subseteq\sigma_{\mathrm{disc}}(\mathcal{A}_m^{(+)})\cup\sigma_{\mathrm{disc}}(\mathcal{A}_m^{(-)}),\tag{3}$$

$$\sigma_{\mathrm{disc}}(\mathcal{A}_m)=\{\sigma_{\mathrm{disc}}(\mathcal{A}_m^{(+)})\cup\sigma_{\mathrm{disc}}(\mathcal{A}_m^{(-)})\}\backslash\sigma_{\mathrm{ess}}(\mathcal{A}_m).\tag{4}$$

*Aniqroq qilib aytganda*

$$\sigma_{\text{disc}}(\mathcal{A}_m) = \bigcup_{s=\pm} \{\sigma_{\text{disc}}(\mathcal{A}_m^{(s)}) \backslash \sigma_{\text{ess}}(\mathcal{A}_m^{(-s)})\}$$

*tenglik o'rinli bo'ladi.*

Ma'lumki, $m = 1,2,3$ va $\mathrm{s} = \pm$ bo'lganda $\mathcal{A}_m^{(\mathrm{s})}$ operatorli matritsa $\mathcal{A}_m$ operatorli matritsaga nisbatan soddaroq ko'rinishga ega, shuning uchun 1-teorema va (3)-(4) munosabatlar $\mathcal{A}_m$ operatorli matritsaning spektri haqida aniqroq ma'lumot olish imkonini beradi.

Chekli o'lchamli qo'zg'alishlarda muhim spektrning o'zgarmasligi haqidagi G.Veyl teoremasidan foydalanib $\sigma_{\text{ess}}(\mathcal{A}_1^{(\mathrm{s})}) = [-\mathrm{s}\varepsilon, -\mathrm{s}\varepsilon + M]$ tenglikni hosil qilamiz. U holda, 3-teoremaga ko'ra $\mathcal{A}_1$ operatorli matritsaning muhim spektri uchun

$$\sigma_{\text{ess}}(\mathcal{A}_1) = [-\varepsilon, -\varepsilon + M] \cup [\varepsilon, \varepsilon + M] \tag{5}$$

tenglik o'rinli bo'lishi kelib chiqadi.

Ko'rinib turibdiki, agar (5) tenglikda $\varepsilon > M/2$ bo'lsa, u holda $\mathcal{A}_1$ operatorli matritsaning muhim spektri o'zaro kesishmaydigan ikkita kesmalarning birlashmasidan iborat bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, $\mathcal{A}_1$ operatorli matritsaning muhim spektrida $(-\varepsilon + M, \varepsilon)$ intervalga teng bo'shliq (lakuna) hosil bo'ladi.

$\mathbb{C} \backslash [-\mathrm{s}\varepsilon, -\mathrm{s}\varepsilon + M]$ sohada regulyar bo'lgan ushbu

$$\Delta_1^{(\mathrm{s})}(z) := \mathrm{s}\varepsilon - z - \alpha^2 \int_{\mathbb{T}^{\mathrm{d}}} \frac{v^2(t)dt}{-\mathrm{s}\varepsilon + w(t) - z}$$

funksiyani qaraymiz.

Odatda $\Delta_1^{(\mathrm{s})}(\cdot)$ funksiyaga $\mathcal{A}_1^{(\mathrm{s})}$ operatorli matritsaga mos Fredgolm determinanti deyiladi.

Quyidagi lemmada $\mathcal{A}_1^{(\mathrm{s})}$ operatorli matritsaning xos qiymatlari va $\Delta_1^{(\mathrm{s})}(\cdot)$ funksiyaning nollari o'rtasidagi bog'liqlik o'rnatilgan.

